

## TARIX

1. Quyidagilardan Buyuk Britaniyaga qarashli "oq koloniya"ni toping.

- A) Yangi Zelandiya B) Hindiston  
C) Afg'oniston D) Seylon oroli

2. 2017-yil iyunda Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida ilk marta qatnashgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotining sammiti qaysi shaharda bo'lib o'tgan?

- A) Bishkek B) Ostona C) Ashxobod  
D) Dushanbe

3. 1858-1859-yillarda qaysi shahar qoraqalpoqlarning qo'zg'olon markaziga aylangan?

- A) Nukus B) Chimboy C) Porsu  
D) Qo'ng'iro't

4. Xatoiy taxallusi bilan ijod qilgan hukmdorni toping.

- A) Sulton Salim I B) Taxmasp II  
C) Ismoil I Safaviy D) Abbos I

5. Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) Chustni bo'ysundirdi; 2) Qo'qon shahrini obod qilib, uni xonlik poytaxtiga aylantirdi; 3) Namangan hokimi Irisqulibiy bilan sulh shartnomasini imzoladi; 4) o'g'li Olimbekni To'raqo'rg'onga hokim etib tayinladi; 5) "navkariya" deb atalgan muntazam qo'shin tuzdi.

- A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 5


6. 1886-yil imperator Aleksandr III tomonidan tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirilib, uning tarkibiga quyidagi qaysi hududlar kirgan?

- 1) O'ratepa; 2) Samarqand; 3) Karmana; 4) Kattaqo'rg'on.

- A) 2, 3 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4

7. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyer-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.

## XIX asrning ikkinchi yarmi



- a) Ikkinchi afyun urushida ishtirok etdi;  
b) Ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi;  
c) Misrni bosib oldi; d) Uchinchi Respublika konstitutsiyasi qabul qilindi; e) Shimoliy Afrikadagi Tunisni bosib oldi; f) Ispaniya bilan tinchlik shartnomasini imzoladi.

- A) I-a, e; II-c, d; III-f B) I-b, c; II-d, e; III-a  
C) I-c, f; II-b, e; III-a D) I-b, d; II-a, e; III-f

8. "Rim tarixi" asari muallifini aniqlang.

- A) Kvint Kursiy Ruf B) Tit Liviy  
C) Arrian D) Plutarx

9. 2008-yili bo'lib o'tgan saylovlarda AQSh prezidenti etib saylangan shaxsni toping.

- A) Bill Klinton B) Barak Obama  
C) kichik Jorj Bush D) Donald Tramp


10. Quyida nomlari keltirilgan hukmdorlardan qaysi biri Qadimgi Misrni bosib olgan?

- A) Gilgamish B) Ashoka C) Kir II  
D) Makedoniyalik Aleksandr

11. 1929-yil yanvarda AQSh prezidentligiga saylangan shaxsni toping.

- A) Franklin Ruzvelt B) Gerbert Guver  
C) Vudro Vilson D) Jorj Klemanso

12. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?




- A) 3, 5 B) 1, 6 C) 2, 5 D) 4, 6

13. Karfagen shahar-davlati qaysi davlat koloniyasi bo'lgan?  
A) Finikiya B) Yunoniston C) Ossuriya  
D) Bobil
14. 2015-yil fevral oyida quyidagi qaysi davlatlar rahbarlari Minsk shahriga yig'ilib, harbiy mojaroni hal etish to'g'risida yangi kelishuv (Minsk-2) ni imzoladilar?  
1) Germaniya; 2) Buyuk Britaniya; 3) Fransiya; 4) Belorussiya; 5) Rossiya; 6) Latviya; 7) Litva; 8) Ukraina  
A) 1, 3, 5, 8 B) 2, 3, 4, 6 C) 1, 4, 5, 7  
D) 2, 6, 7, 8
15. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati markazlari bo'lgan shaharlarni aniqlang.  
1) Xo'jayli; 2) Qo'qon; 3) Xiva; 4) Qarshi  
A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 1, 4
16. Quyidagilardan Qadimgi Rim tarixiga oid bo'lganlarini belgilang.  
1) agora; 2) demokratiya; 3) prokonsul; 4) Parfenon; 5) Senat; 6) Kapitoliy  
A) 1, 2, 4 B) 3, 5, 6 C) 3, 4, 6 D) 1, 2, 5
17. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida asosiy savdo yo'llari qayerga ko'chgan?  
A) Tinch okeaniga B) O'rtayer dengiziga  
C) Atlantika okeaniga  
D) Arabiston dengiziga
18. Tarixiy-mantiqiy bog'liqlik (ketma-ketlik, moslik) to'g'ri berilgan javobni toping.  
A) Mironshoh – Movarounnahr hukmdori – poytaxti Toshkent  
B) Shohrux Mirzo – Xuroson hukmdori – poytaxti Hirot  
C) Mirzo Ulug'bek – Eron hukmdori – poytaxti Bag'dod  
D) Zahiriddin Muhammad Bobur – Mo'g'uliston hukmdori – poytaxti Tabriz
19. Quyidagi ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.  
“1848-yilda Fransiya Prezidenti etib saylangan. U Fransiya davlatidagi ikkinchi imperiyaga asos solgan. Uning davrida mamlakat taraqqiyoti Buyuk Britaniya va Germaniyadan tobora orqada qola boshlagan”.  
A) Karl X B) Lui Filipp C) Napoleon III  
D) Lyudovik XVIII
20. Qoraqalpoq adabiyotining atoqli namoyandasi Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li hayoti va ijodi haqida asar yozgan mualliflarni aniqlang.  
1) K.Sultonov; 2) A.Oripov; 3) I.Yusupov; 4) Ya.G'ulomov  
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3
21. AQSh qaysi davlatning Panama kanalini qurayotgan va kasodga uchragan aksiyadorlik jamiyatining barcha aksiyalarini arzon-garovga sotib olgan?  
A) Angliya B) Fransiya C) Germaniya  
D) Kolumbiya
22. Qaysi Xuroson noibi davrida barcha musulmonlar huquq jihatidan tenglashtiriladi?  
A) Abu Muslim B) Ashros  
C) Tohir ibn Xusayn D) Nasr ibn Sayyor
23. Quyidagilardan I jahon urushi vaqtida Usmonli davlati harbiy vaziri va bosh qo'mondoni bo'lgan shaxsni aniqlang.  
A) Jamol B) Tal'at C) Anvar poshsho  
D) Niyozbey
24. Ikkinchi jahon urushi yillarida Yugoslaviyada ozodlik harakatiga boshchilik qilgan shaxsni belgilang.  
A) F.D.Ruzvelt B) G.K.Jukov  
C) Sh.de Goll D) I.B.Tito
25. 1912-yilda tashkil topgan “Yosh Jazoir” partiyasi mustamlaka hukumat oldiga qanday talablarni qo'ygan edi?  
1) sud ishlarida jazoirliklar uchun “mahalliy kodeks” nomli kamsituvchi tartibni bekor qilish; 2) chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga Jazoirni roziligini olish; 3) soliq to'lashda jazoirliklar va yevropaliklarni tenglashtirish; 4) xalq maorifini kengaytirish; 5) jamiyatlar tuzish, majlislar o'tkazishga ruxsat berish; 6) saylanadigan lavozimlarda arablar uchun o'rinlarni ko'paytirish; 7) qonun oldida hammaning tengligi, shaxs va mulk daxlsizligini berish  
A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 4, 7 C) 2, 4, 5, 7  
D) 2, 3, 5, 6
26. Nuqtalar o'rniga mos keladigan javobni toping.  
O'rta asrlarda Xitoy:  
1) Li Yuan – Tan sulolasi; 2) Chju Yuan-Chjan – Min sulolasi; 3) Xubilay – ...  
A) Sin(Chin) sulolasi B) Xan sulolasi  
C) Yuan sulolasi D) Sun sulolasi

27. Quyidagilarni tahlil qilib, nuqtalar o'rniga mantiqan mos keluvchi javobni toping.  
Ilk o'rta asrlarda Vizantiya:  
1) Falastin; 2) Bolqon yarimoroli; 3) Kichik Osiyo; 4) ...  
A) *Hindiston*    B) *Britaniya*    C) *Daniya*  
D) *Kavkaz*

28. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud(davlat) tarixi bilan bog‘liq to‘g‘ri ma‘lumot berilgan javobni toping.



- A) 1854-yilda AQSh bilan "Tinchlik va do‘stlik" shartnomasi imzolandi.
- B) 1637-yildagi yangi shartnomaga ko‘ra mamlakat qiroli o‘zini manjurlarning vassali deb tan oldi.
- C) 1884-yilda Fransiya tomonidan bosib olindi.
- D) 1864-yilda chet el davlatlari ko‘magida dehqonlar qo‘zg‘oloni bostirildi.

29. Yulduzcha bilan belgilangan hududda (yarim orolda) qadimgi davrda vujudga kelgan davlatlarni toping.



- A) Urartu, Ossuriya
- B) Xett, Mitanni
- C) Parxe, Koguryo
- D) Koshala, Malla

30. Quyidagi jadvalda tarixiy voqea va uning natijasi o'zaro **nomuvofiq** berilgan qatorlarni aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1.	To'rtinchi salib yurishi (1202-1204-yy.)	Lotin imperiyasining vujudga kelishi
2.	1958-yilda Sharl de Gollning hokimiyatga kelishi	Fransiyada To'rtinchi respublikaning tugatilishi
3.	Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olinishining to'rtinchi bosqichi	Buxoro amirligining bo'ysundirilishi
4.	1870-1871-yillardagi Fransiya-Prussiya urushi	Fransiyada ikkinchi imperiyaning inqirozi
5.	VIII asrning boshida Qutayba ibn Muslimning Xuroson noibi etib tayinlanishi	Mo'g'ullar tomonidan Movarounnahrning uzil-kesil bo'ysundirilishi

A) 1, 2    B) 3, 5    C) 3, 4    D) 1, 5